



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Dilnoza Qarshiyeva

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

O'QITUVCHI KASBIY STANDARTLARINI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA MEDIASAVODXONLIKNING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi vaqtida dolzarb bo'lgan muammolardan biri mediasavodxonlikni oshirish, axborot bilan ishslash kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari va mohiyati haqida so'z yurutiladi. Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish, faollikni oshirish vositalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: media, mediasavodxonlik, tarmoq, ijtimoiy tarmoq, axborot, rasmiy sahifa.

Bugungi globallashuv jarayonida axborot olamida Internet, internet-televideeniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ulardan foydalanuvchilar auditoriyasi va ta'siri tobora kengayib borayotganligiga hech kimga sir emas. Asosan bu axborot vositalariga asosan yoshlar va bollar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas.

Ma'lumki, jamiyatda, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, axborotlar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida OAVlari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimiga yana bir muhim vazifa — o'quvchilarni turli

manbalardan, birinchi navbatda, televizor, radio, ijtimoiy tarmoqlar, internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli ma'lumotlarnii to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda. Har bir fuqaro har qanday axborotlarning sifati va ishonchligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televide niye, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Shunday dolzarb masalarlarni hal etishda fuqarolarda mediasavodxonlikni rivojlantirish har bir shaxsni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishslash, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Mediasavodxonlikni esa maktablarda har bir fan tarkibiga, mazmuniga singdirishimiz zarur ekanligi katta ahamiyatga ega.

Maktablarda ta'lim berayotgan har bir fan o'qituvchisi fani mazmuniga mediasavodxonlikni singdirishi avvolo o'zida mediasavodxonlik takommilashtiradigan usullardan foydalanishlari zarur. Buning uchun keling quyudagi savollarga javob izlaymiz. «Bugun mediasavodxonlik — bu axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga — bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishi lozim. Mazkur savollar nafaqat oila davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki Internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir», — deydi jurnalist Nargis Qosimova o'zining «Mediasavodxonlik va mediata'lism: Mohiyat» nomli maqolasida.

O'qituvchi o'z kasbiy statndartlarini tizimiga takomillashtirishda birinchi navbatta axborotlarni rasmiy ijtimoiy tarmoqlaridan va saytlardan foydalanishlari zarur; bundan tashqari qabul qilayotgan axborotlarini qabul qilish, tahlil qilish, saralash, uzatish va xulosalashdan oldin uni qaysi sayt yoki ijtimoiy tarmoqda e'lon qilinayotganligiga e'tibor berish; axborotni to'liq va oxirigacha o'qish; axborotlarga munosabat bildirishda etika-estetikaga rioya qilish; epizod va stikerlardan foydalanishga mavzuga mos va bachkanalikdan qochish.

Tezkor Internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Faxriddin Soliyevning «Internetdan foydalanish madaniyati» maqolasida shunday deyiladi: Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz,

axborot makonida «nosog‘lom» manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta’siridagi axborotlarning (o‘z joniga qasd qilishning oson yo’llarini targ‘ib qiluvchi 9 ming, axloqsiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o‘yinlari zo‘ravonlik va yovuzlik, o‘ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o‘ldirishlar, otishmalar va hokazo) Internet saytlari mavjudligi), milliy axborot makonimizga kirib kelishidir. Mana shunday holatlarni oldini olishda o‘qituvchilar oldiga muhim vazifalar yuklanadi. Har bir fan o‘qituvchi har darsida faniga va mavzusiga doir saytlarni tavsiyalari berib borishi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqt chegaralari qo‘yishga doir mashqlarni, topshiriqlarni tuza olishi; ta’limiy o‘yinlar mavjud saytlar ro‘yxatlarini tuzish hamda tavsiya berib borishi zarur hisoblanadi.

«Gazeta.uz» hamda «Daryo.uz» saytlari xabarlariga ko‘ra, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 13 milliondan oshgan. O‘zbekistondagi yagona ta’lim portalı hisoblangan Ziyonet.uz, vsetut.uz, muloqot.uz, eduportal.uz, uzedu.uz va shu kabi jami saytlarda ro‘yxatdan o‘tganlar jamlanganda ham birgina ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilar miqdoriga tenglasha olmasligi achinarli holatdir.

Ushbu raqamlar milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli, o‘ziga tortuvchi qilib yaratish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishga undaydi. Shuning uchun maktab o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘quvchilarda mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan mahorat darslari, seminarlar, treninglar tashkil etib turishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Nargis Qosimova /«Mediasavodxonlik va mediata’lim: Mohiyat» maqola 2010 yil.
2. Gulchehra Ibragimova/ Globallashuv davrida yoshlar mediasavodxonligini oshirishning ahamiyati maqola.
3. <http://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchunkerak/>